

INGLIZ TILI O'RGANUVCHILARINING BOSHLANG'ICH BILIM OLIISH JARAYONIDA CHET TILI O'QITISHNING TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH

Mamatqulova Dilnura Mirtemir qizi

**Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti:
ingliz tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.**

Salimova Zebo Kenjayevna

**Ilmiy rahbari TerDU "Fakultetlararo chet tili" kafedrası o'qituvchisi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15597764>

Annotatsiya: Chet tili, xususan, ingliz tilini o'qitishda turli metodlar qo'llanib kelinmoqda. Shulardan biri tarjima metodi hisoblanadi. Ushbu maqola boshlang'ich ingliz tili o'rganuvchilari uchun tarjima metodidan foydalanib mustahkam lingvistik poydevor hosil qilish, qolaversa, metoddan foydalanishda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlarini qamrab oladi. Maqola davomida bu metodning boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilar uchun zarur jihatlari grammatik misollar bilan qo'llab-quvatlanadi. Qolaversa, metodning yutuqlari, kamchiliklari atroflicha tahlil qilinib, ular doirasida dars mashg'ulotlarini olib borish, o'qituvchi va o'quvchi uchun samarali muhitda rivojlanish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: chet tili, boshlang'ich til o'rganuvchilar, maqsad til, manba til, tarjima metodi, grammatika, solishtirib o'rganish, keng ma'no, tor ma'no.

Annotation: Various methods are employed in teaching foreign languages, particularly English. One of these is the translation method. This article covers how to build a strong linguistic foundation for beginner English language learners using the translation method, as well as potential problems encountered when using this method and their solutions. Throughout the article, the necessary aspects of this method for beginner-level language learners are supported with grammatical examples. Furthermore, the advantages and disadvantages of the method are thoroughly analyzed, and within that framework, recommendations are provided for conducting lessons and fostering development in an effective environment for both teachers and students.

Keywords: foreign language, beginner language learners, target language, source language, translation method, grammar, comparative learning, broad meaning, narrow meaning.

Kirish

Til o'rganishda qo'llanadigan metodlar ichida tarjima metodi eng qadimiy qadimlaridan biri bo'lib, u qadimiy lotin va qadimiy yunon tillarini o'rganishda asosiy vazifani bajarib kelgani ma'lum. XVI asrdan til o'rganuvchilar uchun ommalashgan usul hisoblangan bu metoddan hozirgi kunga kelib ham voz kechilmagan. Har bir "beginner" til o'rganuvchi albatta, shu tilning grammatikasini o'rganishdan boshlaydi. Shunday ekan, tarjima metodi ham grammatikani o'rgatish va o'rganishdanoq o'quvchining darslar davomida keyingi bosqichga chiqishida yoxud yangi mavzu va vazifani o'zlashtirishida, o'qituvchining esa darsni tashkil etishida yo'nalish vazifasini o'taydi. Bu metodni asosiy o'ringa qo'ymaydigan o'qituvchi ham yangi til, masalan, ingliz tilidagi ilk tushuncha va qoidalarni o'rgatish paytida manba tilidan emas, maqsad tildan foydalanadi. Qabul qiluvchining tez va to'liq tushunishi, ma'lumotning batafsil yetkazib berish imkoniyati tufayli biz bu metodning eng afzal nuqtasi ham aynan shu ekanini anglashimiz

mumkin. Masalan, ingliz grammatikasida alifbodan keyin o'rgatiladigan artikllar mavzusini olaylik. Noaniq artiklning o'zbek tilidagi ekvivalent ma'nosi, qo'llanishi haqidagi qoidalar o'zbek tilida o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi yoki kitob va qo'llanmada taqdim etiladi. O'quvchi mavzuga oid mashqlarni tarjima metodidan foydalanib mustahkamlaydi. Bu jarayon, asosan, quyidagicha kechadi: 1) grammatikaga doir vazifa (mashq yoki test) bajariladi 2) vazifadagi gap tarjima qilinadi.

Grammatikani o'zlashtirishda tarjima metodining foydalari:

1. Mavzuni oson tushunish va tushuntirish imkoniyati.
2. Manba tilda o'rganilayotgan qoidalarni maqsad tildagi grammatik qoidalarga moslab, qiyoslab chog'ishtirib o'rganish (zamonlar, modal fe'llar misolida)
3. Tarjima qilish berilgan mashqni ikki karra bajarish demakdir. Tarjima qilish jarayonida o'quvchi yanada chuqurroq bilim o'zlashtiradi (ingliz va o'zbek tilida gap bo'laklarining o'rni farqli. Tarjima qilganda sintaksis bo'limini, so'zlarning qanday holatda qanday vazifa bajarib kelayotganini aniqroq tushuna oladi).

Bu narsa, ayniqsa, "Relative clauses" (Nisbiy qo'shimcha gaplar) ni mukammal tushunishga yordam beradi. Masalan: My neighbours went to the store that is in the center of the city. Ushbu gapni tarjima qilish orqali o'quvchi, birinchidan, "in the center of the city", ya'ni "shaharning markazida" jumlasini store (do'kon)ni ifodalayotganini yana ham aniqroq tushunib oladi.

Ikkinchidan, ikki til grammatikasi solishtirilib mustahkamlanadi. "In the center of the city" (shaharning markazida) jumlasini o'zbek tili grammatikasida sifat-dosh bo'lib, sintaksisda aniqlovchi yuzaga chiqaradi. Ingliz tilida ham "relative clause" ----- nisbiy qo'shimcha gap deb ataladigan gapning ushbu qismi gapdagi biror bo'lakni batafsilroq tushuntirib keladi. Shu jihatiga ko'ra, o'xshashlikni aniqlaymiz. Asosan, "who", "which", "what", "whose", "where", "when" kabi (relative pronouns — nisbiy olmoshlar) birliklar bilan ishlatiladi. O'zbek tilida bo'lsa sifat-dosh qo'shimchalar orqali yuzaga chiqib, tarjimada ham grammatikamizga moslashtiriladi. Bu ----- farqli jihati. Umuman olganda, tarjima metodi asosida solishtirib, qiyoslab o'rganish orqali o'quvchining til bilish qobiliyati oshadi. Shunda yana bir jihat ----- ajratilgan bo'lak sifatida tarjima qilish ham mos kelishini (ikki xil usuldan foydalanish mumkinligini) kashf qilgan bo'lamiz.

Uchinchidan, "Relative clause"li qismda "that" olmoshi qo'llangan. Mashq yoki testlar davomida bu joyga bo'shliq qo'yilishi yoki shu holatda joylarga nisbatan qo'llanadigan "where", "which" nisbiy olmoshlaridan mos qo'yilishi so'ralganda bu narsa tarjimaga asoslanib amalga oshiriladi. Aniqlanayotgan joy tarjimada "there" - u yerda, u yerga ma'nolarini anglatrsa, doim "where" qo'llanadi. Agarda "it" ma'nosini anglatrsa, doim "which" qo'llanadi.

My neighbours went to the store that is in the center of the city. Qo'shnilarim shahar markazidagi do'konga borishdi.

My neighbours went to the store. Qo'shnilarim do'konga borishdi.

It is in the center of the city. U ----- shahar markazida.

("That" esa istalgan "relative pronouns" ----- nisbiy olmoshlar o'rnida qo'llana oladi). Bu holatda ayniqsa, boshlang'ich o'rganuvchilar uchun tarjima metodi bilan ishlash muhim.

Grammatikani o'zlashtirish jarayonida tarjima metodidan foydalanishdagi muammolar:

Maqsad til va manba til o'rtasidagi morfologik tafovutlar. So'zlarning turkumga bo'linishida farqlari kuzatilishi mumkin. Masalan, "alight" so'zi "yonayotgan", "olov ichida" deb

tarjima qilinadi. Bu soʻz ingliz tilida "adjective", yaʼni "sifat", ammo oʻzbek tilida unga mos tarjima sifatdosh (feʼl soʻz turkumining sifatga xoslangan, aniqlovchi gap boʻlagi vazifasida kelishga xoslashgan) shaklida beriladi.

Oʻlik (masalan, lotin) va jonli tillar tarjima metodi bilan oʻrgatilib, bu jarayon mantiqiy tafakkurni rivojlantirish omili hisoblab kelindi.* Ammo bu toʻgʻridan toʻgʻri fikrlashga toʻsqinlik qilishi mumkin. Oʻquvchi "beginner" taʼlim olish davridanoq avval ona tilida oʻylashga, keyin ingliz tilidagi Grammatik qoidalar asosida tarjima qilishga odatlanib qoladi. Ikki til oʻrtasidagi ushbu almashinish jarayoni tezlikka va maqsad tilda gapirish ravonligiga putur yetkazishi mumkin.

Yechim: Fikrlash masalasidagi muammoni bartaraf qilish uchun yozish tavsiya etiladi. Oʻquvchi darsda oʻrganganlari asosida (dastlab, "beginner" darajadan boshlab) darajasiga mos matn yaratishi kerak. Shu zaylda oʻquvchi erkin fikr yuritishda oʻzlashtirgan maʼlumotini uygʻunlashtirib mustahkamlaydi.

* Oʻ. Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili oʻqitish metodikasi". Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2003. 123-b.

Mavzuga mos oʻzbekcha gaplar talaffuzidagi qiyinchiliklarda soʻzlarning audio materialini tinglash tavsiya qilinadi. Oʻquvchilariga "beginner" lik darajasidan dars boshlanishi va yakunlanishida ingliz tilida tezkor savol-javob oʻtkazish tavsiya etiladi. Bu yoʻllar bilan inglizcha nutq va fikrlash ham oʻstirib boriladi.

Baʼzi soʻzlarning maʼnosini toʻlaqonli ochib berib boʻlmaydi. Ingliz tilidan tarjima qilinayotgan jumla ona tilimizdagidan kengroq yoki torroq mazmunga ega boʻlishi mumkin.

Ushbu muammoni bartaraf qilish uchun metodik qoʻllanmalarda tarjima metodining 3 usuli haqida yoziladi. Ulardan birinchisi: ekvivalent maʼno beruvchi soʻz mavjud boʻlsa, toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish.

Ikkinchisi: bir necha maʼnoli soʻz boʻlsa, ularni kontekstga qarab muvofiq keladigani olinadi.

Uchinchisi: toʻliq maʼno boʻlmasa ona tilida izoh beriladi. Bu izohlar quyidagi holatda ham zarurki, agar tarjima qilinayotgan soʻz yoki jumla, xalqning milliy qadriyati, liboslari va taomlariga oid boʻlsa. Masalan, "bowler hat" bouler shlyapasi oʻzbek tilida aniq tarjimaga ega emas, shu bois maʼnosi izoh orqali oydinlashadi: dumaloq, qattiq shlyapa boʻlib 19-asrda London bankirlari, ishbilarmonlari va shahar aholisi orasida mashhur boʻlgan. Tomas va Villiyam Boulerlar tomonidan yaratilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, tarjima metodining chet tilini oʻqitish metodi sifatida paydo boʻlishi va besh ilgari paydo boʻlganiga qaramasdan hozirgi til oʻrganuvchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda eng koʻp oʻrganilayotgan ingliz tilini oʻqitishda boshlangʻich darajadan boshlab metodni qoʻllash ham oʻqituvchiga ham oʻquvchiga yengillik beradi. Lekin bu metoddan foydalanishda uchraydigan kamchiliklar tufayli olinayotgan bilimda boʻshliq yuzaga kelmasligi uchun uni boshqa zamonaviy metodlar bilan uygʻunlikda takomillashtirib borilsa, soʻzsiz, koʻzlangan natijaga erishiladi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamol Jalolov. "Chet tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012. 76-b
2. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2003.
3. en.m.wikipedia.org
4. Axbarova Madina Anvarjon qizi. "Chet tili o'qitishda foydalanilgan grammatika-tarjima metodi". Eurasian Journal of Academic Research, vol 4. Part 2 April 2024.
5. Shahboz Toshpo'latov. "Step by step|" ingliz tili fanidan maxsus qo'llanma. Toshkent. "Regbooks" nashriyoti. 2020. 167-b.

INNOVATIVE
ACADEMY